

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2022 Vol. 4

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoglu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Uşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkiya)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nodir Jurakuziyev

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdolvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Zaynabidin Abdirashidov (Turkey)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Inomjon Azimov

“O‘zbek yangi alifbasini tuzishda asoslar” risolasi xususida.....6

Iroda Qahhorova

Taqlid so‘zlarning o‘rganilish darajasi va tasniflanish tamoyillari.....26

Jo‘ra Xudoyberdiyev

O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi.....40

Marhabo Umurzoqova

Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili.....74

Alisher Ahrorov

O‘zbek xalq maqollarida “nutq odobi” ma’nosining
ifodalanish darajasi.....86

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Buxoro imperiyasi yoki O‘zbekiston bo‘ylab sayohat.....100

San‘at

Gulabza Qarshiyeva

Sa’diy Sheroziy “Bo‘ston” asarining Kamoliddin
Behzod ijodidagi talqini.....128

CONTENT

Linguistics

Inomjon Azimov

Regarding the manual “Rules for creating a new Uzbek alphabet”6

Iroda Kaharova

The degree of study and classification principles of imitative words26

Jura Khudoyberdiyev

Extraction of synharmonism from the Uzbek literary language.....40

Marhabo Umurzakova

The gender factor of determining the linguistic
identity in the literary text.....74

Alisher Ahrorov

The degree of expression of the meaning of “speech etiquette”
in Uzbek folk proverbs.....86

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Travel through the Empire of Bukhara or Uzbekistan.....100

Art

Gulabza Karshieva

The interpretation of the ideas of “Boston” epic of Saadi
Sherazi in the creativity of Kamoliddin Bekhzad.....128

O'zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi

Jo'ra Xudoyberdiyev¹

Abstrakt

Turkiy tillar rus istilosidan keyin dastlab chor ma'murlarining, keyin bolsheviklar tuzumining qattiq nazoratida bo'ldi. Mazkur tillarning tovush tizimi, alifbosi, imlosi, so'z boyligi, qo'llanishi kabi sohalarini o'zgartirish borasida tizimli ishlar amalga oshirib borildi. Tadqiqotlarda bu tillarning mushtarak xususiyatlariga e'tibor berilmagani holda, bir-biridan ajratib turadigan tomonlari bo'rttirib ko'rsatildi. Maqolada ushbu masalalardan birining ildizini ochish maqsadida turli davrlarda "qalinlik va ingichkalik ohangi", "tovushlar uyg'unligi", "ohangdoshlik", "singarmonizm" kabi so'z va so'z birikmalari bilan nomlanib kelingan hodisaning o'zbek adabiy tilidan chiqarilishi tahlil qilingan.

Abdurauf Fitrat, Elbek, Go'zi Olim, Otajon Hoshim, Ashurali Zohiriy, Qayum Ramazon, T.Ibrohimov va Y.Polivanov kabi olimlarning qarashlari o'rganilgan. Natijada o'zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi tabiiy yo'l bilan bo'lmagan degan to'xtamga kelingan.

Kalit so'zlar: *singarmonizm, tovushlar uyg'unligi, ohangdoshlik, unli tovushlar, Fitrat, Elbek, Go'zi Olim, Otajon Hoshim, Ashurali Zohiriy, Qayum Ramazon, T. Ibrohimov, Y. Polivanov.*

Kirish

XX asr boshlari matbuoti sahifalari ko'zdan kechirilsa, eng ko'p bahs va munozaraga sabab bo'lganlardan biri milliy til masalasi ekanligini kuzatish mumkin. Milliy tilga nisbatan har qanday ijobiy fikr qo'llab-quvvatlangan, salbiy qarashlar esa qoralangan, millatga, millatning or-nomusiga tahdid deb bilingan. Masalan, jadidlar karvonboshisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy xalqimiz, tilimizni kamsitib, "sart" deb atayotganlarga qarshi o'zi chop ettirgan "Oyna" jurnalining beshta sonida "Sart" so'zi majhuldur" deb nomlangan

¹ Xudoyberdiyev Jo'ra Ochilovich – katta o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: Jxudayberdi@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5362-0356

Iqtibos uchun: Xudoyberdiyev, J. O. 2022. "O'zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqarilishi". *O'zbekiston til va madaniyat* 4: 40–73.

maqolasini e'lon qilgan. Sart so'zining turkistonliklarga mutlaqo aloqasi yo'qligini aniq dalillar bilan isbotlab bergan [Бехбудий 2021, 34-44]. Qomusiy bilim sohibi Abdurauf Fitrat millatning buyuk tarixi, boy adabiyoti, betakror san'ati, o'z kashfiyotlari bilan dunyoni lol qoldirgan donishmandlari bilan qanday g'ururlangan bo'lsa, takrorlanmas qudratga ega muqaddas tili bilan ham iftixor etgan. Dalillar va tahlillarga boy qator maqolalarida, kitoblarida o'zbek tilining tarixda tutgan o'rni, qadimiyligi, qudrati, boshqa qardosh tillar o'rtasidagi o'rni, ularning shakllanishidagi, rivojlanishidagi hissasini butun ko'lami bilan ochib berishga harakat qilgan. U 1921-yilda bo'lib o'tgan Til-imlo konferensiyasida adabiyotimiz, tilimizning mavqei, boshqa adabiyotlar, tillar orasidagi o'rni haqida mamnuniyat bilan shunday degan edi: "Sharq adabiyotining hashamatli, rangli bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o'tkanda bu kungi ovro'po adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadir. Shunga o'zini majbur ko'radir.

Sharq tarixi, adabiyoti – butun dunyo adabiyoti orasida singirsiz, misli yo'q bir bog'chadir.

Bu go'zal bog'chadagi gullarni saralab ko'rmakchi bo'lsak, birinchi sirada, birinchi qatorda arab ham eron gullarini, ikkinchi sirada esa, urdu ham turk chechalarini ko'ramiz. Sharq tarix adabiyotida birinchilik arab-eron adabiyotiga, ikkinchilik esa urdu ham turk adabiyotiga berilgandir.

Sharq tarix adabiyotida ikkinchi o'rin tutqon turk adabiyotining eng muhimi, eng ko'pi, eng qimmatlisi chig'atoy shevasidagi adabiyotdir...

Unda yuksak, oliy, san'atkor adabiyot bor! Chig'atoy tarix adabiyotida Boyqaro, Naboiy, Lutfiy, Umarxon, Fazliy kabi san'at dunyosida mo'jiza ko'rsatub, to'ponlar qilg'on qahramonlarg'a ko'b uchraymiz.

So'zning qisqasi: chig'atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o'runni tutqondir.

Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga ushoqliklari, buning shogirdliklari bilan maqtanib turalar...

Chig'atoy adabiyoti – turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo'lg'ondan keyin, chig'atoy tilining ham turk tillari orasida yuksak, yuqori, oliy bo'lg'onlig'in qabul etmak mutlaqo lozimdir...

Chig'atoy sarfi bilan tatar ham usmonli sarflarini siralab qarag'onda chig'atoychaning sarfda, ya'ni ishtiyoqda boylig'ini ko'ramiz...

Bunlardan boshqa turk tili, turk adabiyoti to'g'risida

yozilg'on asarlarning har birini o'qug'onda "chig'atoy tili, chig'atoy adabiyoti – turk tillari va turk adabiyotining onasi, bobosidir" degan so'zlarga uchramoq mumkindir.

Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori bir o'runda turg'onidan tilimizning-da turk tillari orasida yuqori bir mavqe tutg'onini chiqarg'on kabi, bundan ikkinchi bir masala tug'adir: adabiyotimiz arab, fors adabiyotiga qarag'anda ikkinchi sirada ekan, tilimizda arab, fors tillarig'a qarag'anda ikkinchi sirada qolur(mi)?

Bunga javob beramiz: "yo'q!" Tilimizdagi so'z boylig'i, ishtiyoq kengligi, qoida tugalligi, sarf-nahv ingichkalari boshqa sharq tillaridan qolishmas. Bu tog'rilarda fors tilini butunlay keyinga qoldiradir" [Til va imlo 1922, 35-36].

Buyuk ajdodlarimiz jadidlar o'z tili, tarixi, madaniyati, xalqi va muqaddas Turkistonining ulug'ligini juda yaxshi bilishgani uchun ham mustamlakachilar ularga qarshi kurashdi, ularni qatl qildi, asarlarini taqiqladi, ular muqaddas deb bilgan barcha qarashlarni tubdan o'zgartirishga harakat qildi.

Shu bois turkiy tillar Rossiya istilosidan keyin dastlab chor ma'murlarining, keyin bolshevistik tuzumning turli tazyiqlariga uchradi. Mazkur tillarning tovush tizimi, alifbosi, imlosi, so'z boyligi, gap qurilishi va boshqa sohalarini o'zgartirishga tizimli ravishda harakat qilindi. Tadqiqotlarda bu tillarning bir-biri bilan bog'lab turuvchi umumiy xususiyatlariga e'tibor berilmagani holda, bir-biridan ajratib turadigan tomonlari bo'rttirib ko'rsatildi.

Biz ushbu masalalarning ildizini imkon qadar ochish maqsadida o'zbek tili tovush tizimidagi bir hodisaning adabiy tildan chiqarilishi, bu jarayonda ilgari surilgan fikrlarni imkon qadar tahlil qilmoqchimiz. O'zbek tilshunosligining turli davrlarida "qalinlik va ingichkalik ohangi", "tovushlar uyg'unligi", "ohangdoshlik", "ohang qonuni", "singarmonizm" singari so'z va so'z birikmalari bilan nomlanib kelingan bu tovush hodisasi tilshunoslikda, asosan, singarmonizm termini bilan nomlanmoqda. Mazkur hodisa barcha turkiy tillarda mavjud bo'lib, bu tillar qarindoshligining tovush tizimidagi asosiy belgilaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Singarmonizm termini haqida

Singarmonizm bir so'z doirasida tovushlarning o'zaro bir-biriga moslashib, uyg'unlashib kelishidir. Bunga muvofiq o'zak va negizlardagi tovushlarga qo'shimchalardagi tovushlar moslashib keladi. Agar o'zakdagi (negizdagi) unlilar til orqa (qattiq) bo'lsa,

qo'shimchadagi unlilar ham til orqa (qattiq), aksincha, o'zakdagi (negizdagi) unlilar yumshoq (til oldi) bo'lsa, qo'shimchadagi unlilar ham yumshoq (til oldi) bo'ladi. Shunga ko'ra, singarmonizm mavjud bo'lgan tillarda qo'shimchalar ham ikki yoki undan ortiq variantda bo'ladi. Singarmonizm asosidagi so'zda "a" bilan "o", "i" bilan "ы" tovushlari deyarli qorishib kelmaydi. Bir so'zda faqat til oldi (yumshoq) unli tovushlari (**i, e, a, u**) yoki faqat til orqa (qattiq) unli tovushlari (**o, ы, u, a, o**) keladi.

Ba'zi adabiyotlarda singarmonizm unli tovushlarning bir-biriga moslashib kelishi tarzda qayd qilinadi. Aslida bu hodisani undosh tovushlarning qo'llanishida, o'zakdagi til orqa (qattiq), til oldi (yumshoq) unlilar bilan undosh tovushlarning moslashib kelishida ham kuzatiladi. Masalan **k, g, h** undoshlari bilan ingichka (yumshoq), **q, g', x, y** undoshlari bilan qattiq unlilar yonma-yon keladi.

O'zbek adabiy tilidagi singarmonizm hodisasi haqidagi turli qarashlar

Til tarixiga bag'ishlangan ko'pchilik tadqiqotlarda, darslik va qo'llanmalarda turkiy tillardan biri bo'lgan o'zbek tilida ham singarmonizm hodisasi XX asr boshlarigacha bo'lganligi qayd qilinadi. Keyingi davr haqida so'z borganda esa o'zbek tilining o'sishi, rivojlanishi, tabiiy taraqqiyoti natijasida singarmonizm hodisasi yo'qoldi, degan fikr bildiriladi. Ilmiy, o'quv adabiyotlarida esa "Singarmonizm qonuni hozirgi o'zbek tilida buzilgan, ammo boshqa turkiy tillarda, ayrim o'zbek shevalarida saqlangan" [Qilichev 1999], "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili asosan singarmonizmsiz til hisoblanadi va singarmonizimli boshqa turkiy tillardan farq qiladi" [Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1966] singari fikrlar keltiriladi.

Mazkur hodisa, uning tilimizdagi o'rni va roli haqidagi munozaralar hozirgacha davom etib kelmoqda. Ba'zi olimlar singarmonizumni chuqur o'rganaylik, imkon qadar undan foydalanaylik, degan qarashni ilgari sursa, boshqalar uni keskin rad qiladi. Masalan, o'zbek tili tarixining zukko bilimdonlaridan filologiya fanlari doktorlari Xudoyberdi Doniyorov, Qozoqboy Mahmudov singari olimlar singarmonizumni joriy qilish tarafdori bo'lib, bir necha marta maqolalar e'lon qildilar.

X.Doniyorov singarmonizm hodisasi, uning o'zbek tili tarixidagi o'rni, o'zbek adabiy tilining singarmonistik ukkladli tildan singarmonizmsiz tilga qanday qilib aylanib qolgani kabi masalalar

o'zbek tilshinosligida yetarli darajada o'rganilmaganligini alohida urg'ulaydi: "Singarmonizm hodisasi o'zbek tilshunosligida hali yetarlicha o'rganilgan emas, biroq u o'zining izchil va ilmiy asosda o'rganilishini talab qiladi. Chunki singarmonizm hodisasini o'rganish, avvalo, singarmonizمنىing o'zbek tili tarixidagi rolini, o'zbek adabiy tilining qanday qilib singarmonistik ukkladli tildan singarmonizmsiz tilga aylanib qolganligini aniqlash, shuningdek, o'zbek adabiy tilining hozirgi holatini, uning kelajagini, orfoepik normalarini, alfavit, orfografiya qoidalarini to'g'ri belgilash uchun muhim ahamiyatga ega" [Shoabdurahmonov 1980, 72].

Q.Mahmudov bu borada shunday fikrlarni bildirgan: "Turkistonda yashagan turkiy xalqlarning an'anaviy tili yaqinligini, ildizi birligini, o'zbek tilining bir guruh shevalarida singarmonizm mavjud ekanligini, mumtoz o'zbek adabiy tili ham singarmonizm qonuniga asoslanganligini inobatga olish zarur" [Mahmudov 1995]. "Hozirgi o'zbek adabiy tili mumtoz adabiy tilimizning fonetik qonunlariga rioya qilsa, qardosh turkiy tillarga yanada yaqinlashgan bo'lamiz" [Mahmudov 1996].

O'zbek tilidagi singarmonizm tilning tabiiy o'sishi, rivojlanishi natijasida yo'qoldi, uni qayta tiklashga ehtiyoj yo'q, degan qat'iy fikrdagi olimlar ham bor. Masalan, S.Otamirzayeva bir maqolasida "o'zbek adabiy tilida singarmonizمنى tiklashning iloji ham, unga ehtiyoj ham yo'q. Til o'z mexanizmidan yaroqsiz sifatida chiqargan vositani qabul qilmaydi" [Otamirzayeva 1996], deb yozasa, boshqa bir ishida ham shunga yaqin fikrni ta'kidlab o'tadi: "o'zbek adabiy tilida singarmonizمنى tiklashning nazariy tomondan ham, amaliy tomondan ham iloji yo'q, unga ehtiyoj ham yo'q" [Otamirzayeva 1998].

E.Umarovning qator ishlarida esa singarmonizm o'zbek adabiy tiliga sun'iy ravishda kiritilganligi, rus olimlari tomonidan joriy etilganligi, o'zbek tilidagi unli tovushlar miqdori, ularni tavsiflashdagi noto'g'ri talqinlar haqidagi fikrlar bayon qilindi [Umarov 1991; 1994; 1997; 2000; 2003; 2009]. Olim "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida e'lon qilgan "Kim haq...?" nomli maqolasida shunday yozadi: "Biz ko'p yillar davomida ota-bobolarimiz yozib qoldirgan merosga bepisand qaradik. Ular qoldirgan ilmiy maqola, risolalarni o'qimadik. Eng achinarlisi shuki, 20-30-yillarda yashagan tilshunos olimlarimiz asarlariga ham e'tibor bermadik. Natijada, o'zbek tili rus tili va yevropa tilshunosligi ta'sirida rivojlandi. Ana shunday ta'sir natijasida rus va yevropa tillaridagi qoidalar to'g'ri kelsa ham, to'g'ri kelmasa ham o'zbek tiliga yopishtirildi. Ana shunday qoidalardan biri - singarmonizmdir" [Umarov 1997].

E.Umarov singarmonizm haqidagi fikrlarini yanada chuqurlashtirib, bu hodisa turkiy xalqlarning qadimiy yozuv yodgorliklaridan biri "Devonu lug'atit turk" asari tilida ham mavjud emas, degan qarashni ilgari surdi [Umarov. 1989]. Bu mantiqan singarmonizm hodisasi, umuman, turkiy tillar tarixida mavjud bo'lmagan, degan tushunchani anglatadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, hozirgacha bunday qarash o'zining ilmiy isbotini topmagan, ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgani yo'q [Xudoyberdiyev 1999].

E.Umarovning o'zbek adabiy tilidagi singarmonizm, unli tovushlar miqdori va ularning qo'llanishi haqidagi fikrlari mutaxassislar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Aksincha, olim qarashlarining to'g'ri emasligi bir necha bor lisoniy dalillar asosida ilmiy jihatdan isbotlab berildi [Nurmonov 1997; Yusuf 2008; Safarov 2005; Xudoyberdiyev 1999].

Endi uzoq yillar davomida o'zbek dialektologiyasi masalalari bilan shug'ullanib qator tadqiqotlar yaratgan, hatto o'zbek tilidagi singarmonizmning yo'qolib borishini asoslashga harakat qilgan akademik Sh.Shoabdurahmonovning 1998-yilda e'lon qilgan "O'zbek tilida singarmonizm" nomli maqolasidagi fikrlariga e'tibor beraylik. Olim maqolada qadimgi turk, oltoy, tuva, xakas, to'falar, ozarbayjon, turkman, tatar, boshqird, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, yoqut va o'zbek tillaridagi bir qancha so'zlarni keltirib, ularda singarmonizm saqlangani, o'z ifodasini topganligini ko'rsatadi. Turkiy tillardan biri bo'lgan o'zbek tilida ham singarmonizm hodisasi amal qilishini ta'kidlaydi va shunday yozadi: "o'zbek tili uch komponentli til bo'lib, uning paydo bo'lishi va shakllanishida shu uch komponent (qarluq, o'g'uz va qipchoq lahjalari) barobar ishtirok etgan. O'zbek tilining qarluq lahjasining o-lovchi shahar shevalarida va bu shevalar tayanch bo'lgan o'zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi chegaralangan; ammo o'g'uz va qipchoq lahjalarida, shuningdek, qarluq lahjasining a-lovchi shevalarida singarmonizm qonuniga amal qilinadi" [Шоабдурахмонов 1998, 23].

O'zbek tilshunosligi uchun munosib xizmatlari singgan olimlarning o'zbek adabiy tilidagi singarmonizm haqida bildirgan bu turli fikrlari, tilimiz tarixida muhim rol o'ynagan tovush hodisasining hozirgacha qizg'in munozaraga sabab bo'lib kelayotganligini, olimlarimiz singarmonizm haqida qanday fikrni asoslashga harakat qilganliklaridan qat'iy nazar, mazkur masalaga befarq bo'lmaganliklarini ko'rsatadi.

Biz ushbu maqolada singarmonizmni qayta tiklash, uni keskin

rad qilish yoki o'zbek tilida qanchalik amal qilgani yoki qilmaganligi to'g'risida fikr yuritmoqchi emasmiz. Yuqorida X.Doniyorov singarmonizm hodisasi o'zbek tilshunosligida hali yetarli darajada o'rganilmaganligiga e'tibor qaratib, "o'zbek adabiy tilining qanday qilib singarmonistik ukladli tildan singarmonizmsiz tilga aylanib qolganligini aniqlash" ham muhim ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratganliklarini keltirgan edik. To'g'ri, bu masalaga, 20-30-yillarda Y.Polivanov, K.Yudaxin kabi olimlar o'z ishlarida bir necha marta to'xtalib o'tganlar. Ularning ishlarida singarmonizmning yo'qolish jarayonlari, bosqichlari haqida turli dalillar ham keltirilgan. Sovet davri, hatto mustaqillikdan keyin ham, ayrim mahalliy olimlar tomonidan Y.Polivanov qarashlariga o'xshash yoki juda yaqin fikrlar bildirilganini kuzatish mumkin. Lekin bu olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosiy qismi tarixiy va ilmiy asosga ega bo'lmasdan, qanday qilib bo'lsa ham o'zbek tilidan singarmonizmni chiqarish, singarmonizmning tabiiy ravishda chiqarilganligini asoslash uchun o'ylab topilgan dalillar edi.

Shu ma'noda, X.Doniyorov singarmonizm bilan bog'liq jarayonlarni chuqur o'rganishga da'vat qilgani tabiiy edi. Biz yigirmanchi asrning 20- va 30-yillarida singarmonizm bilan bog'liq bildirilgan turli fikrlar, qizg'in bahslar, ularning asoslari xususidagi ayrim dalillarni e'tiboringizga havola qilmoqchimiz.

1921-yil Toshkentda bo'lgan til va imlo qurultoyida, 1922-yilgi maorif va madaniyat xodimlari qurultoyida hamda 1923-yilda Buxoroda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo o'zbeklarining imlo anjumanlarida arab alifbosi va imlosini isloh qilish muammolarini ko'rib chiqish jarayonida o'zbek tilidagi singarmonizm hodisasiga ham munosabat bildirilgan. O'zbek tilida singarmonizm mavjudligi anjumanlarda qabul qilingan qarorlarda alohida qayd etilgan [Til va imlo, 1922; O'zbek maorif, 1922; O'rta Osiyo o'zbeklari, 1923]. Ushbu anjumanlarda, o'sha davr vaqtli matbuotida o'zbek adabiy tilida yoki o'zbek tilida singarmonizm hodisasi mavjud emas, degan fikr bildirilmagan.

Arab alifbosidan lotin yozuviga o'tish davrida esa o'zbek tili me'yorlarini belgilashda singarmonizm hodisasi turlicha nuqtayi nazardan qizg'in muhokama etildi. Bu paytdagi fikrlarni jamlab, ularni ma'lum ma'noda uch guruhga ajratish mumkin:

1. O'zbek adabiy tili singarmonizmga yuz foiz amal qilsin.
2. O'zbek adabiy tili singarmonizm hodisasi bo'lmagan eroniy lashgan shevalar asosida tuzilsin.
3. O'zbek adabiy tili singarmonizmga amal qilib, ayrim

so'zlar singarmonizmga bo'ysundirilmasin.

O'zbek adabiy tili singarmonizmga yuz foiz amal qilsin, degan fikr asosan milliy va mahalliy olimlar, ziyolilar tomonidan bildirilgan. Otajon Hoshim "Boku plenumi natijasi" nomli maqolasida: "Singarmo'nizm butun turk tili lahjalariga xosdir. U turk tili asosidir. Singarmo'nizm turk tilining temir qonunidir... O'zbek, umuman, turk tiliga kirib qolg'on fors, arab va boshqa chet so'zlarni butun turk lahjalari uchun umumbo'lg'on singarmo'nizm qonuniga bo'yinsundirish kerak... O'zbek tilini va lotin alifbosini singarmo'nizmnini saqlag'on o'zbek shevalariga asos qilish kerak" [Otajon 1927 (7-8), 55-56], deydi. Olim boshqa bir ishida shunday yozadi: "Lotinchag'a o'tish, yangi alifbei tuzish vaqtida oldimizda turg'on asos masala – o'zbek yangi alifbesini qaysi bir shevaga asos qilish edi. O'zbek shevalari ko'b bo'lg'onidan ulardan birini tollab olish kerak edi. Qaysi birini? Albatta, singarmunizm saqlag'on shevalarni. Singarmunizm butun turk tili uchun xosdir. Singarmunizm shundan iboratdirkim, har bir so'z yo qalin, yo ingichka bo'ladi... Mana bunday qonunni saqlag'on o'zbek shevalari ko'b. Bunday shevalarda ko'b shaharlar, butun qishloq ommasi so'zlaydi. Shuning uchun ham o'zbek yangi alifbei shunday ko'pchilikni tashkil qilg'on va singarmunizmnini saqlag'on shevalarga asos qilindi. Singarmunizm natijasi bo'lib cho'zg'ilar masalasi chiqdi. Bu to'g'rida ikki fikr bo'lishi mumkin: 6 yoki 9 cho'zg'i. 6 cho'zg'i tomonlari forslashg'on shevalarga suyanmakchi bo'ladi. Lekin bunga suyanish bo'lmaydi. Chunki toshkent shevasida ham (6 cho'zg'i tomonlari Toshkentni forslashg'on hisob qiladilar) yaxshilab tekshirilsa, 9 cho'zg'i borlig'i bilinadi. Singarmunizm saqlang'on shevalarda 9 cho'zg'i ochiq ishlatiladi. Singarmunizmnini qabul qilg'ach 9 cho'zg'ini ham qabul qilish kerak. Yangi o'zbek alifbei mana shu ikki asos prinsipka asos qiling'ondir: singarmunizm va 9 cho'zg'i" [Hoshim 1927 (11), 18-19].

"Qizil O'zbekiston" gazetasi 1929-yil may oyida, Samarqandda bo'lib o'tadigan qurultoy munosabati bilan "Til, atama va imlo bahslari" rukni ostida turkum maqolalar e'lon qiladi. U maqolalarda asosiy e'tibor o'zbek adabiy tili uchun asos bo'ladigan shevalar, chetdan olinadigan so'zlar, atamalar va ularning imlosi, alifbodagi harflar soni, xususan, unli tovushlarning miqdori, ularni alifboda ifodalanishi, imlo, singarmonizm kabi muhim masalalar muhokama etiladi. Ushbu ruknni Elbek "Til-implomiz ustida" nomli maqolasi bilan boshlab bergan. Unda "Singarmo'nizm – ko'b kishilarni cho'chitgan, ba'zi bir kimsalarning kulgi va so'kish to'rvalarining yorilishig'a sabab bo'lg'on, bu so'z chinda implomiz-

ning butunlig'in saqlash uchun yelim va tilimizning ko'rkini oshirish uchun bezakdir. Bu qalinlik va ingichkalik ohangi bizning tilimizning jonidir, yiqilmas qo'rg'onidir... Yo yuz foiz singarmo'nizmga ko'chish, yo butunlay buning teskarisini qabul etish. Boshqa hech bir yo'lning bo'lishi mumkin emas" deb yozilgan [Elbek, 1929-yil 28-yanvar].

Ashurali Zohiriy ham "sof o'zbek tilida singarmo'nizm borlig'ini hech kim inkor qila olmaydi. Hol shundoq bo'lg'ondan keyin, cho'zgining (og'ir yengilligi bilan) to'qquzta qilinishi, shu singarmo'nizmga asoslang'on. Ya'ni: singarmo'nizm bilan cho'zgining to'qquztalig'i bir-biriga qattiq bog'lang'on" [Zohiriy, 1929-yil 31-mart], degan fikrni bildirgan.

O'z maqolasini Singarmo'nizmchi taxallusi bilan e'lon qilgan muallif esa: "bu kungi to'siqlarg'a qarab singarmo'nizmdan ham qo'l tortmaymiz. Singarmo'nizm – o'zbek adabiy tilining yiqilmas temir qo'rg'oni, jonidir. Singarmo'nizmga qarshi bo'lg'onlar o'zbek adabiy tilini yiqmas istaganlar yoxud bu tilning kelgusidagi o'ynayaturg'on ro'lini tushunmaguchilardir" [Singarmo'nizmchi, 1928], deb ta'kidlagan.

Shu davrda singarmonizm haqidagi munozaralarda qatnashganlarning aksariyati, Fitrat, G'ozii Yunus, Botu, Shokir Sulaymon va boshqa mahalliy ziyolilarning maqolalarida ham o'zbek tili shevalarining ko'pchiligida singarmonizm hodisasi va 9 ta unli tovush borligi, shu sababli uni o'zbek adabiy tili uchun asos qilib olish zarurligi haqida fikr bildirilgan.

O'zbek adabiy tili singarmonizm hodisasi bo'lmagan eroniy-lashgan shevalar asosida tuzilsin, degan fikrni dastlab Y.Polivanov ko'tarib chiqqan. U 1922-yilda toshkent shevasida 6 unli tovush bo'lib, o'zbek adabiy tili uchun shu shevani asos qilib olish kerakligini e'lon qilgan [Поливанов 1922]. Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi loyihasida ham unli tovushlarni ifodalash uchun 6 belgini ko'rsatgan [Поливанов 1924 (6)].

1928-yilga kelib lotin alifbosini va lotin alifbosi asosidagi imlo qoidalarini singarmonizm asosida tuzilishi, alifboda 9 unli tovushni aks ettirish aniq bo'lib qoldi, uzoq vaqt davom etgan qizg'in munozaralardan keyin mahalliy ziyolilarning aksariyati bu fikrni qo'llab-quvvatladi, ilmiy, amaliy jihatdan isbotlab ham berishdi. Y.Polivanov ham o'z fikridan qaytmadi. Qanday yo'l bilan bo'lmasin, o'zbek adabiy tili uchun singarmonizmsiz eroniy-lashgan shevalarni va alifboda unli tovushlarni ifodalash uchun 6 belgini asos qilib olish zarur, degan qarashni davom ettiraverdi: "Я говорю здесь звуковом составе литературного языка и имею на это основания: я

утверждаю что литературный или стандартный диалектом узбекского языка является несингармонистический диалект, представленный в частности Ташкентским, Самаркандским и Ферганскими городскими говорами”. Singarmonizm bo‘lmagan sheva vakillari ham o‘zbek tili tovush tizimida bu hodisa bor, deb turganliklaridan xafa bo‘lib, ular orasiga fitna solmoqchi ham bo‘ldi. Va bu masalaga 5, 10 yoki 20 yildan keyin albatta qaytilishini qat’iy ishonch bilan bildirdi [Поливанов 1928].

Y.Polivanov singarmonizm turkiy tillarning asosiy xususiyatlaridan biri, turkiy tillar tovush tizimining o‘q ildizi ekanligini juda yaxshi biladi hamda bu hodisa faqat boshqa tillarning kuchli ta’siri ostida yo‘qolishini o‘z ishlarida qayta-qayta ta’kidlaydi. Olim “O‘zbek adabiy tili va o‘zbek dialektologiyasi” nomli asarida Samarqand, Buxoro va boshqa o‘zbek shevalari tojik tili ta’siri natijasida singarmonizmni yo‘qotdi desa [Поливанов 1933, 18], boshqa bir asarida eronlashgan dialektga savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi Toshkentga o‘xshagan markaziy shahar shevalari kiradi, deydi-da, tojik tilining ta’sirida turkiy so‘zlar o‘z sofligini yo‘qotdi, bu shevalar turkiy o‘ziga xoslik bo‘lgan singarmonizmdan mahrum bo‘ldi [Поливанов 1926, 7], degan qarashni bayon qiladi.

Y.Polivanovning aksariyat ishlarida Toshkent shevasi eronlashgan, deb talqin qilinadi va bu fikrini dalillash uchun toshkentlik o‘zbeklarning kelib chiqishi tojiklarga borib taqalishini bildiradi. Ma’lumki, ilmida bu kabi hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega qarashlar tarixiy, ilmiy manbalardagi aniq va ishonchli dalillar bilan tasdiqlanadi. Y.Polivanov esa bu fikrini biror tarixiy manba bilan asoslamaydi, biror asardan dalil keltirmaydi. U yozadi: “... предки данного узбекского говора говорили несколько столетий тому назад по-ирански, относятся отнюдь не ко всему узбекскому языку, а только к таким иранизованным его говорам, как г. Ташкенте, относительно которого можно по этому с бесспорностью утверждать, что здесь жило некогда сплошное иранское (таджикское, т. е. восточно-персидское) население, которое потом перешло на турецкий (узбекский) язык, язык победителей” [Поливанов 1926, 19].

Olim Toshkent so‘zining kelib chiqishi haqida alohida maqola yozib, bu so‘z etimologiyasini “taj(i)-kent” shaklida talqin qildi. [Поливанов 1927, 395-400].

Umuman, Toshkent shevasini eronlashgan deyish to‘g‘rimikin? Agar Toshkent shevasi ham Y.Polivanov ilgari surayotganidek eronlashgan bo‘lsa, nega u holda o‘zbek adabiy tili uchun faqat eronlashgan

(Toshkent, Samarqand, Buxoro) shahar shevalari asos qilib olinishi kerak? Shu davrda o'zbek adabiy tilidagi singarmonizm haqida bo'layotgan bahslarda nima uchun mahalliy olimlar fikri bir tarafda-yu, Y.Polivanov qarashlari bir tarafda? Y.Polivanovning maqsadi nima bo'lgan? Bu kabi savollarga ham Y.Polivanovning o'z asarlarida bildirilgan fikrlardan javob topish mumkin.

Yigirmanchi asrning 20-yillarda Ahmad Boytursunov qozoq tili alifbosi va imlo qoidalarini isloh qildi. U qozoq tili yozuvida چ "chim" (ch) o'rnida ش "shin" (sh), ش "shin" (sh) o'rnida س "sin" (s), ج "jim" (j) o'rnida ز "ze" (z) qo'llashni tavsiya etdi. O'zining qozoq tilidagi "O'quv qo'llanma" (1912), "Alifbo" (1924), "Yangi alifbo" (1926-1928) kabi o'quv adabiyotlarini isloh qilgan alifbo va imlo asosida chop ettirdi. Bu qozoq tili imlosini bir qadar yengillatdi, qozoq alifbosida milliy til tovush xususiyatlarini aks ettirdi. Qozoq maktablarida savod chiqarish hamda ona tili kurslarini o'rganish birmuncha osonlashdi. Shu sababli o'sha davr qozoq ziyolilari ham, maorif xodimlari ham A.Boytursunov islohini yaxshi qabul qilishdi.

Lekin masalaning boshqa bir nozik tomoni ham bor edi. Tarixdan ma'lumki, arab alifbosida bitilgan bir turkiy matnni o'zbek o'zbekcha, turkman turkmancha, tatar tatarcha, turk turkcha, qozoq qozoqcha qilib qiynalmasdan bimalol o'qishi, tushunishi mumkin edi. A.Boytursunov islohi esa qozoq tilida bitilgan matnni boshqa turkiy xalq vakili o'qishida va mazmunni anglashida qiyinchilik tug'dirardi. Y.Polivanov A.Boytursunov tuzgan imlo qoidalari va qozoq alifbosiga kiritgan islohini, xususan, yuqoridagiga o'xshash qardosh tillarni bir-biridan ajratish uchun xizmat qiladigan o'rinlarini juda katta ijobiy hodisa sifatida baholadi. Va o'sha maqolasida yagona turkiy adabiy tilni yaratish fikridan voz kechib, o'z milliy yozuvini yaratish haqida o'ylash kerakligini tavsiya qildi: "от мысли об едином тюркским литературном языке приходится отказаться. Потому строго говоря и для каракиргизов приходится думать о своей собственной графике" [Поливанов 1924 (7), 40].

Aslida bunday qarashlarning ildizi birmuncha oldinroqqa borib taqaladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida turkiy xalqlar orasida bir-biriga yaqinlashish harakati anchagina jonlandi. Bu, ayniqsa, til masalalarining qo'yilishida yaqqolroq ko'rina boshladi. Ismoil Gaprinskiy "Tarjimon" gazetasida yagona turkiy tilni yaratish, uning amaliy ahamiyati haqidagi maqolalar chop etildi. Buning tub mohiyatini anglab, qo'llab-quvvatlovchilar ham, amaliy jihatdan imkonsizligini bildirganlar ham bo'ldi. Bu jarayon chorizm ma'murlari

tomonidan o'ta sergaklik va sinchkovlik bilan kuzatib borilgan. Turkiy xalqlarning yaqinlashishiga qaratilgan har qanday harakatga to'sqinlik qilish choralari ko'rib borilgan. Hatto bu kabi masalalar Rossiya davlat dumasida ham bir necha marotaba muhokama qilingan, mahalliy ziyolilar o'z noroziliklarini bildirishgan [Мусульманские депутаты 1998, 178-179]. Turkiy xalqlarning parchalanish tarafdorlaridan biri bo'lgan Ilminskiy 1876-yilda har bir turk qavmining o'z tiliga va alifbosiga ega bo'lishiga erishish lozim, shunda ularni bir-biridan ajratish oson kechadi, deb turkiy xalqlarga rus alifbosini joriy qilish taklifini ko'tarib chiqqan edi. Y.Polivanovning o'zbek adabiy tili uchun singarmonizmsiz shevalarni asos qilib olish zarur, degan qarashlarida ham N.Ilminskiyning ana o'sha fikrlariga yaqinlik borligini payqash mumkin.

O'sha davrda Y.Polivanov fikrlarini qo'llab-quvvatlovchilar, uni himoya qiluvchilar ham bo'lgan. Masalan, K.K.Yudaxin "Maorif va o'qituvchi" jurnalidagi "Vodil qishlog'i lahjasi haqida bir necha so'z" nomli maqolasida mahalliy mutaxassislarning Y.Polivanov qarashlariga bildirayotgan munosabatlarini "tushunib bo'lmaydigan munosabat" deb baholaydi: "Mashhur o'zbek tilchilaridan ba'zilar profiso'r Polivanifg'a allaqanday tushunib bo'lmaydig'an munosabat tutadilar. Bunga misol qilib G.Olimning "O'zbek tilining tovishlari" ("Maorif va o'qituvchi", 1927, № 12) maqolasi, "Singarmo'nizmiy"ning "Yana til-imlo masalasi ustida" ("Qizil O'zbekiston", 1928, 15.11.) maqolasidag'i chiqishlarni olish mumkin" [Yudaxin 1928, 48].

K.K.Yudaxin 1920-yillarning oxirida Y.Polivanov qarashlarini to'la qo'llab-quvvatlab chiqdi. U o'zbek xalqi yashab turgan hudud eroniylarniki bo'lganligi, turklar bu hududni bosib olganlaridan keyin eroniylarning madaniyatini qabul qilib, ularga o'z tillarini berganliklari haqida shunday yozadi: "Из истории мы знаем, что территория занимаемая ныне узбеками, прежде была населена иранцами. Известно также и то, что турки – завоеватели, смешиваясь в завоеванных местах с иранцами и воспринимая их культуру, часто давали им свой язык. Но как турецкая культура сдавала свои позиции не сразу, оставляя след на местной иранской, так и иранский язык, уступая свое место турецкому, в свою очередь, влиял на него" [Юдахин 1929, 62-63].

Olim Alisher Navoiy, Amiriy, Lutfiy kabi shoirlarning hamda "Shayboniynoma" asaridan olingan misollarni tahlil qilib, ular singarmonizmsiz sheva vakillari bo'lganliklari, ularning tillarida 6 unli tovush bo'lgani haqida xulosa berib, go'yo Y.Polivanov ilgari surayotgan fikrlar to'g'riligini isbotlagandek bo'ldi: "Изложенный

факты приводят меня к тому предположению, что важнейшие поэты были представителями говорков несингармонистических, в которых насчитывалось только шесть гласных” [Юдахин 1929, 67].

Turklarning yashash hududlari, shaharlarga aloqasi bilan bog'liq ilmiy asoslanmagan bunday fikrlar hozirgacha davom etib kelmoqda. Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan A.Y.Yakubovskiyning “O'zbek xalqining yuzaga kelishi masalasi haqida” nomli asari rus va o'zbek tillarida chop etilgan. Unda shunday fikrlarni o'qiymiz: “So'g'd shaharlarida (Buxoro, Samarqand va boshqalar) sharqiy Eron, ayniqsa Xuroson tili bilan umumiy bo'lgan va tojik-fors tili deb atalishi joiz bo'lgan til yaratildi”. “Somoniylar zamonida turklashish protsesi Shosh viloyatida ildamroq bordi”. A.Y.Yakubovskiy o'z fikrini tasdiqlash uchun tarixiy manbalarni, masalan, Mahmud Koshg'ariy fikrlarini buzib talqin qilgan: “Turklashish hammadan burun turk tili va nutqining g'laba qozonishida ifodalandi, buni XI asrning mashhur olimi Mahmud Koshg'ariy qayd qilib o'tadi” [Yakubovskiy 1941, 9]. “Devonu lug'atit turk” asarida esa bunday fikr uchramaydi.

Bundan tashqari, A.Y.Yakubovskiyning “O'rta Osiyo va, xususan, O'zbekistonning qadimgi xalqlari tomonidan yaratilgan madaniy meros turklar uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi” [Якубовский 1941, 16]. “X asrda Movarounnahr va Xuroson tuprog'idagi turklar madaniy boyliklarni yaratishda qadimgi shaharlardagi tojik aholisi saviyasiga ko'tarildilar” [Якубовский 1941, 17] singari gaplarda ilgari surayotgan fikrlari zamiridagi maqsad ham turkiylar tarixini soxtalashtirishdir.

Y.Polivanovning o'zbek tilidagi singarmonizm va unlilar to'g'risidagi qarashlarining inkor qilinishi

O'zbek tilshunosligi taraqqiyoti, rivojlanishida Y.Polivanovning ishlariga juda yuqori baho berilganligi mutaxassislariga ma'lum. Ba'zi o'rinlarda esa uni ideallashtirish, hatto o'zbek tilshunosligining, o'zbek dialektologiyasining asoschisi, deb e'tirof etish holatlari ham kuzatiladi [Fulomov 1976, 3-4; Shoabduxomov 1974, 62; Ishaev 1990, 59]. N.Karimov “Jahon adabiyoti”dagi “Buyuk tilshunos olim” nomli maqolasida Y.Polivanovning o'zbek tiliga oid qator ishlarini sanab keladi-da, “Polivanovning o'zbek tili grammatikasi va dialektologiyasini o'rganish ishiga tamal toshini qo'ygan zabardast olim sifatida hurmat qilishimiz va e'zozlashimizga to'la asos beradi” [Karimov 2011, 191], “turkiyshunoslik

fanlarining yuzaga kelishiga muhim hissa qo'shgan... Y.D.Polivanov tom ma'noda jahon tilshunoslik fanining yirik namoyandalardan biri" [Karimov 2011, 192], deb e'tirof etadi.

20-yillarning oxiri 30-yillarning boshlarida Y.Polivanovning o'zbek tilidagi singarmonizm hodisasi va unlilarning soni ham qo'llanishi, o'zbek adabiy tili uchun asos bo'ladigan shevalarni belgilash to'g'risidagi qarashlarini mahalliy aholi vakillaridan birortasi ham ma'qullamagan. Bu haqda Abdulla Alaviy "Profiso'r Polivanif tarafidan olg'a surilgan bu fikrni yolg'iz ovropoli mustashiriqlarning bir qismida o'ziga tarafdor topgan bo'lsa-da, o'zbeklar orasida buni yo'qlovchi bo'lmadi" [Alaviy 1929, 20], deb yozgan edi.

Yana: "Muhtaram profiso'r Polivanof Toshkent shevasini asos tutish va uni adabiy sheva qilib olish to'g'risida taklifda bo'lindi. Dalil o'laroq, Toshkentning madaniy markaz ekanini, bugun O'zbekistonda yozuv bilaturg'on xalqning aksari shu shevada yoxud shung'a yovuq shevalarga mansub ekanini so'yladi.

Lekin biz masalaga bunday tor qaray olmasdiq, chunki birinchi bizning (ya'ni Turkiston turklarining) ko'b asrlardan beri kelgan ohang qonunig'a asos qiling'on adabiy tilimiz bor. Bu til – hamma shevalarga umumiy bir til bo'lub kelgan, butun yozuvlarimiz shu tilda yozilg'on va buni hechkim yot siramag'on.

Bu kungi o'zbek tilining yuqorisidag'i tilning davomi va bir oz mukammallashtirgan shakli ekaniga kim shubha etadir?

Hol shunday ekan, bugun, qaysi shevaga mansub bo'lmasin, yozuv bilaturg'on kishimiz shu tilda yozar ekan, "siz falon xilda til tuzingiz, falon..." deyishlar, "samoyedlar" uchun foydali kengash bo'la olsa-da, "o'zbeklar" uchun behuda bo'g'oz yirtishdir...", degan fikri ham bor [Alaviy 1927, 8].

G'ozim Olim esa Y.Polivanov toshkent shevasini yaxshi bilmasligi, toshkent shevasi unlilari haqidagi qarashlari noto'g'ri ekanligini qayd etgan: "Profiso'r Polivanif toshkent shevasida o'rta alif o'rnida har vaqt qalin alifli ishlatadi. Holbuki, toshkent shevasida qalin alifli so'z bir necha yuzga yetmadigi holda, o'rta alif hokim bir o'run tutadi. Profiso'r Polivanif Toshkent shevasini juda oz bilganligi orqasida bo'lsa kerak, bu shevaning so'zlari to'g'risida ko'b yanglishadiki, bu yonglishlar to'g'risida to'g'ri kelganda yozarmiz" [G'ozim Olim 1927, 50].

Elbek ham Y.Polivanov qarashlariga o'z munosabatini bildiradi: "So'zimga dalil qilib profiso'r Polivanifning 28 nchi yil, 22 nchi o'ktabr tarixli 244 nchi sonli "Правда Востока" gazetasida

“Невозможно молчать” sarlavhasi ostida bosilg'on maqolasini ko'rsatsam bo'ladir. Bunda Polivanif o'rtoq alla qaydan turib musht ko'taradir, o'z fikriga qarshi chiqqanlarni “nodon” deb so'kadir, o'zining chiday olmag'onini yuqoridag'i sarlavha bilan bildiradir.

Uzoq yillar O'zbekistonda bo'ldingiz, o'zbekning til-imlo kengashi, qurultoylarining barchasig'a deyarlik qatnashdingiz, lekin kimsani o'zingizga ergashtira oldingizmi? Buni ham qo'yayliq, 1926 nchi yil, avg'ust kengashida o'zingiz qarorg'a qo'l ko'targan holingizda yana shu kengash majlisiga qatnashg'onlarni endi “nodon” deb so'kishga tutinasiz. Bu yaxshi emas, muhtaram profiso'r!

... Yana shuni ham aytay: sizning toshkent, samarqand shevalari ustidagi tekshirishingiz va “olti cho'zg'ili toshkent shevasi”ni umum o'zbeklar uchun o'rtoq adabiy til ravishida kiritishga urinishingiz behuda. Chunki, sizning o'ylag'oningiz toshkent shevasida 6 emas 9 cho'zg'i tugal-to'kis bordir. Buni Toshkent til bilarmonlari alla qachon tekshirib bilganlar”. “Toshkent shevasi o'zbekning adabiy tili ro'lini o'ynay olmaydir” [Elbek, 1929-yil 29-yanvar].

Singarmo'nizmchi esa: “Oling profiso'r Polivanifni. Ul til to'g'risida sizga shunday yo'l ko'rsatadirkim, u yo'lg'a kirgan kishi, albatta, adashadi” [Singarmo'nizmchi, 1928], deb o'z munosabatini bildirgan.

Taniqli olim V.V.Bartold o'sha yillardayoq Y.D.Polivanovning Toshkent so'zining kelib chiqishi haqidagi etimologiyasini e'tirof etadiganlar topilmasa kerak, deb fikr bildirgan edi: «Предложенная Е.Поливановым (О происхождении названия Ташкента) этимология (Тажкент = «город таджиков», т.е. арабов), вряд ли найдет признание» [Бартольд 1965, 499].

A.K.Borovkov “eronlashish” nazariyasining tarafdorlari o'ylab topilgan sxemalarini tiqishtirgani, hatto Y.Polivanov tomonidan Toshkent so'zining “toj(i)kent” tarzda etimologiya qilinishi [Поливанов 1927, 19] tarixiy jihatdan ham, lingvistik jihatdan ham mavjud emas, deb bildi: “Защитники теории «иранизации» всячески подгоняли под надуманную схему явления языка, строили надуманные этимологии, напр., проф. Е.Д.Поливанов в угоду своей схеме выводил название Ташкента из таж(и)кент, т. е. «таж(и//к)ское селение», хотя исторических и лингвистических оснований для такой этимологии нет и т.д.” [Боровков 1955, 91].

Eroniylashgan shevaning o'zbek tiliga aloqasi yo'qligi

1926-yilning fevral oyida Bokuda bo'lib o'tgan Birinchi turkiyshunoslar qurultoyida turkiy xalqlarning tili, tarixi, etnografiyasi bo'yicha rus turkologlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarda qator kamchiliklar, noaniqliklar borligi ko'rsatib o'ildi. O'zbekiston vakili sifatida ishtirok etgan G'ozii Olim Yunusov qurultoyning 1926-yil 27-fevral kuni o'tkazilgan yig'ilishida turkiy xalqlarning etnografiyasi haqida qilingan ma'ruzalarda juda kam va umumiy ma'lumotlar berilgani, shuningdek, xalqlarni bir-biridan ajratib turadigan, bir-biriga o'xshamagan farqli juhatlari yoritilmagani haqida gapirgan. O'zbeklar haqida esa tamomila noto'g'ri fikr bildirilganligini alohida urg'ulagan: "Когда говорят об узбеках, у всех получается какое-то туманное представление. Что они представляют собой? Узбеки – это люди с длинной бородой, большой чалмой и длинными широкими халатами. И толко. И действительно, взглянешь на альбом, где изображены типы узбеков. Что же этот альбом нам говорит? Абсолютно ничего. Например, вместо узбека снят таджик персидского, иранского происхождения; в их чертах совершенно нет тюркского элемента. Такие альбомы, вероятно, составлены человеком, совершенно не знающим состояния Узбекистана" [Тюркологический съезд 1926, 86-87].

Yunusov, shuningdek, o'zbek tili bo'yicha olib borilgan ishlar, ularda ilgari surilayotgan fikrlar ham g'ayri ilmiy, hech qanday ilmiy asosga ega bo'lmagan eroniylashgan sheva deb talqin qilinayotgan sheva asliga o'zbeklarga, o'zbek tiliga mutlaqo aloqasi yo'qligiga qurultoy qatnashchilari diqqatini qaratgan: "Наши языковеды не знают, какие имеются наречия у узбеков. Например, чагатайское, смешанное узбекское наричие, они называют узбекским. А потом еще выдумали какой то сартский язык и говорят, что это их особый язык, тогда как сарты все говорят на персидском языке. Когда они говорят на узбекском языке, они знают, что они персы. Таджиков, сартов определяют без всякого затруднения. Они говорят по-узбекски так же, как я говорю по-русски; сейчас же можно узнать, что я не русский, что они не тюрки. А некоторые наши ученые писали в своих трудах, что вот мол сарты происходят из иранской расы, они забыли свой язык и приняли тюркский язык, что в Узбекистане имеется сартское наречие. Это конечно неправильно, это – большая ошибка... Ни Москва, ни Ленинград серьезно этим вопросом не занимались. Я просил бы, чтобы Курултай на это обратил внимание" [Тюрколо-

гический съезд 1926, 87].

Elbek ham eroniylashgan shevani o'zbek tiliga aloqasi yo'qligini qayd etgan: "Ammo samarqand shevasiga kelsak, buni siz "eronlashgan" sheva deb yuritasiz. Holbukim, bu eronlashgan sheva emas, balki to'g'ridan-to'g'ri forsiy tilning buzilg'oni bo'lib, uning o'zbek tiliga sira bog'lanishi yo'qdir" [Elbek, 1929-yil 29-yanvar].

Qator rus sharqshunolarining ishlarida o'zbek tiliga fors (tojik) tilining ta'siri, natijada tovush tizimidagi o'zgarishlar haqida fikrlar bildirilgan edi. A.K.Borovkov turkologik adabiyotlarda mustahkam o'rnashib qolgan o'zbek tilining "eronlashishi" nazariyasining g'ayriilmiy va shu nazariya asosida amalga oshirilgan o'zbek dialektlari tasnifi noto'g'ri degan to'xtamga keldi. Olim o'zbek tili ayrim shahar shevalaridagi singarmonizm hodisasining yo'qolishini, u aholi qatlami asli turkiy bo'lmaganligi, o'z tillarini yo'qotib o'zbek tilini qabul qilganliklari natijasida ularning tilida singarmonizm bo'lmaganligini qayd etdi: "что таджики, подвергнувшиеся ассимиляции и утратившие родной язык, усвоили узбекский язык, сохранив исконное таджикское произношение, в первую очередь, таджикский, иранский вокализм, в результате чего в узбекских городских говорах исчезло явление сингармонизма" [Боровков 1955, 90].

O'zbek tilining "eronlashishi" bilan bog'liq fikr, asosan, XX asr turkologiyasida, xususan, rus turkologiyasida uchrashini va bunga katta e'tibor berilganini, sovet fani turkiy xalqlarning mintaqadagi mavqeyini tizimli ravishda tarixiy haqiqatlarni buzib talqin qilganliklarini kuzatish mumkin. Sovet olimlari tadqiqotlardagi fikrlar, tarixiy adabiyotlar, manbalar bilan asoslanmagani ham mutaxassislarga ma'lum.

XI asrda yaratilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridagi dalillar esa, A.K.Borovkov aytib o'tganidek, ma'lumotlar o'ylab topilganini, ajdodlarimiz yashab kelayotgan katta hududdagi shaharlar asosan turkiy xalqlar tomonidan bunyod etilganini, ularga forsiy tilda gaplashadigan aholi keyin ko'chib kelganligini ko'rsatmoqda. Mahmud Koshg'ariy "qaz" so'ziga izoh berganda ko'plab shaharlar turklar tomonidan qurilganini aytib o'tadi: "Afrosiyob qizining nomi. Qazvin shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli qaz o'yni – g'oz o'ynaladigan joy demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi. Shuning uchun ba'zi turklar Qazvinni turk shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, Qum shahri ham chegara hisoblanadi. Chunki qum turkcha so'zdir... Ba'zilar turk shaharlari chegarasi Marvash-Shohijahondan boshlanishini

so'zlaydilar. Chunki Qazning otasi To'nga Alp er – Afrosiyobdir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin Mervni bino qilgandir.

Ba'zilar butun Maverannahrni turklar o'lkalaridan deb hisoblaganlar. U Yankanddan boshlanadi. Uning bir oti Düzruyındir. U sariqligiga ko'ra, mis shahri demakdir. Bu Buxoroga yaqindir... Butun Maverannahr, Yankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand, Semizkänd, Tashkand – Shosh, Özkänd, Tÿnkänd nomlarining hammasi turkchadir, känd turkcha shahar demakdir. Ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo'ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular ajam shaharlari kabi bo'lgan" [Koshg'ariy 1963, 163-134].

Mahmud Koshg'ariyda Toshkent so'zining etimologiyasi ham berilgan. U "Tärkän" so'zining izohida "Shosh [Toshkent]ning ismi. Uning asli Tash kand bo'lib, toshdan qurilgan shahar demakdir", degan ma'lumotni keltirgan [Koshg'ariy 1960, 414].

Demak, Mahmud Koshg'ariyning guvohlik berishicha, butun Maverannahr, Yankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalardagi shaharlar, asosan, turk shaharlari bo'lgan. Semizkänd, Tashkand – Shosh, Özkänd, Tÿnkänd kabi katta shaharlarning nomi ham turkchadir. Turklar bu shaharlarni qurib shunday nom qo'yganlar. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular ajam shaharlari kabi bo'lgan.

Bundan tashqari, mintaqada, xususan, yurtimizdagi arxeologik qazishma ishlari, tangashunoslik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, turli hududlardan topilgan qadimgi turk yozuvida bitilgan yodgorliklarining topilishi va tadqiqoti natijalari ham ushbu hududda ajdodlarimiz qadimdan yashab kelganligini ilmiy jihatdan isbotlaydi, forsiylarning turklashishi haqida bildirilgan fikrlar asossiz ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek adabiy tili singarmonizmga amal qilsin, ayrim so'zlar singarmonizmga bo'ysundirilmasin. Abdurauf Fitrat tom ma'nodagi katta olim edi. U o'zbek tili, o'zbek tilining imkoniyati va boyligi, tarixda tutgan o'rni, o'zbek tilida yaratilgan tarixiy manbalar va mohiyatini chuqur bilardi. Olim singarmonizm haqidagi qizg'in bahslarda qatnashib, dastlab o'zbek tilidagi barcha so'zlarni bu hodisaga to'la bo'ysundirish haqida fikr bildirdi. Lekin u ko'p o'tmay o'zbek tilidagi barcha so'zlarni singarmonizmga bo'ysundirish mumkin emasligini yoki Polivanov ilgari surayotganidek, o'zbekcha so'zlarni singarmonizmdan mutlaqo mahrum qilish noto'g'ri ekanligini tushunib yetdi. Olim bu muammoni hal etmaslik kelgusida qator chalkashliklar, tushunmovchiliklar keltirib chiqarishini

nazariy jihatdan isbotlab berdi. Singarmonizm haqidagi bahslar avjiga chiqqan bir paytda Fitrat birinchilardan bo'lib bu muhim masalaga jamoatchilik e'tiborini qaratgan edi: "Biz bilan madaniy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy munosabat qilg'on xalqlardan biz ko'p so'zlar olg'on va olmoqdamiz. Tashqaridan kelgan bu so'zlarning jabbor, qalam, maqola kabi bir qismlari bizda o'zlashib qolgani uchun tovush ohangiga tobe bo'lg'on, lekin... *xususiyat, diyonat, parvona, bola, lola* kabi tovush ohangiga uymag'on so'zlarimiz ham bor. Bularni nima qilamiz... tajriba ko'rsatdi: yot so'zlarning, hatto g'ildirak kabi o'z so'zlarning ham bir qismini tovush ohangiga tobe qila olmadik. Demak, tovush ohangi qoidasidan bir qism so'zlarni mustasnoga chiqarish majburiyati bor" [Xudoyberdiyev 1997. 16. 56-59; Hudoyberdiyev 1998. 433-443].

Ashurali Zohiriy ham bu masalaning jiddiyligini, o'z vaqtida oldi olinmasa, boshboshdoqlik keltirib chiqarishini anglab yetdi. Muammoning yechimi haqida shunday taklif berdi: "Bizda singarmo'nizm yuz foiz bo'lg'usidir, tilimizga oralashqon ajnabiy so'zlarni ham o'z qoidamiz (singarmo'nizm)g'a bo'yin sundiramiz. Bundan bo'yin tovlaydurg'onlari o'rnig'a o'z tilimizdan so'zlar topishg'a harakat qilamiz.

G'ijjak, g'altak, g'ildirak, pildiroq, yo'lak singari o'zlashgan forsiy so'zlar (yoki forsiycha qo'shimcha qo'shilg'on so'zlar)ni o'zgartmasdan singarmo'nizm qoidasidan mustasno qilamiz" [Zohiriy, 1929-yil 31-mart].

1929-yil may oyida Samarqandda o'tkazilgan Til-imlo konferensiyasida alifbo, imlo va singarmonizm masalalarining ko'rilishi

1929-yilning 15-23-may kunlari Samarqandda til-imlo konferensiyasi bo'lib o'tdai. Unda adabiy til, termin va imlo masalalari qizg'in myhokama qilinadi. Konferensiyada singarmonizmli shevalar xususiyatini, o'zbek tilining boshqa turkiy tillar bilan yaqinligini ta'minlash zarurligini hisobga olib, adabiy til 9 unli tovushga asoslanishini ma'qullaydi. Imlo qoidalarida ham shu tamoyillarga amal qilinadi. Ushbu masalalar qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ladi.

Bahrom o'zbek tili me'yorlarini belgilashda imkon qadar barcha lahja va shevalarni asos qilib olish zarurligi va uning ahamiyati haqida fikr bildirgan. Til uchun bir shevani asos qilib olish xató ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan: "Ba'zi o'rtoqlar, qanday bo'lsa bo'lsin biror mahalning shevasi olinsin, deb aytadilar.

Biz o'ylaymizki, tilimizni ayrim shevalarga bo'lib yurish yaramaydir. Hech bir joyning shevasi bizga asos bo'la olmaydir. Biz adabiy til qurar ekanmiz, o'zbeklarning har bir joyig'a ya'ni ommaga yaqinlashuvimiz kerak. Bu kungi tilimizga "yo'qchi", "jo'qchi" Xorazm shevalaridan ham eng lozim bo'lg'an unsurlarni oluvimiz lozim. Bu ish tilimizni kengaytiradir va boyitadir. Albatta bu boyitish, kengaytish, o'stirish kerak.

Biz bir yerning shevasini asos olib qo'ysaq xato qilg'an bo'lamiz. Shuning uchun o'zbekning butun shevalarining hammasidan istifoda qilishimiz kerak" [Til-imlo 1932, 58-59].

O'zbek adabiy tilining imlosi to'g'risida ma'ruza qilgan Qayyum Ramazon [Til-imlo 1932, 91-103] imlo qoidalarini tuzishda turk so'zlarida singarmonizm qonuni to'la tatbiq etilishi haqida gapirib o'tgan [Til-imlo 1932, 94-95]. Ushbu masala yuzasidan Imad No'g'aybek [Til-imlo 1932, 103-106], Ajdarov [Til-imlo 1932, 106-107], Xo'janov [Til-imlo 1932, 107], Fitrat [Til-imlo 1932, 107-109], Elbek [Til-imlo 1932, 109-110], Isxoqov [Til-imlo 1932, 110-111], Go'zi Olim [Til-imlo 1932, 111-112], Sobirjon Ibrohimov [Til-imlo 1932, 112-113], Shokirjon Rahimiy [Til-imlo 1932, 113-114], Begjon [Til-imlo 1932, 115-116], Hodi Fayziy [Til-imlo 1932, 116-117], Orif Ayyub [Til-imlo 1932, 117], Sariboyev [Til-imlo 1932, 117-119], Buyuk Karimiy [Til-imlo 1932, 119-120], Murod Shamsiy [Til-imlo 1932, 120-121], Abdulhay Ayyub [Til-imlo 1932, 121-122] o'zbek tilida singarmonizm mavjudligi va uni adabiy til uchun asos qilib olish haqida fikr bildirganlar.

Ushbu qurultoyda Co'ponzoda barcha jumhuriyatlar singarmonizmli alifbodan voz kechganligi, O'zbekistonda adabiy til uchun singarmonizmni asos qilib olishning hech keragi yo'qligi, lotinlashtirishning asoslaridan biri turk-tatar va boshqa Sharq xalqlarining yozuvlarini yaqinlashtirish ekanini aytib o'tadi: "So'ng o'laroq singarmunizm haqida bir qancha so'z so'ylamakchi bo'laman. Konferensiyadagi chiqishlar o'zbek lahja, yoxud shevalarining asosiy e'tibori bilan singarmunizmli bo'lg'anini ko'rsatdi. Buning uchun cho'zgilarini ozaytirmoq masalasini bu konferensiyadan so'ngra qat'iy suratda ortadan ko'tarmak lozim keladir. Singarmunizmli alifbe tajribasi ikki yil muddaticha Qazaqistan, Qirg'zistan kabi jumhuriyatlarda yayildi.

Bu tajribalardan chiqqan natijalar manfiy bo'lg'ani uchun ortiq 1 nchi plenumda butun jumhuriyatlar singarmunizmli alifbedan voz kechdilar. Endi yangidan O'zbekistonda bu tajribani takror etmakning menimcha hech keragi yo'q. Ikkinchi tomondan

lotinlashtirish ideyasining asoslaridan birisi turk-tatar va boshqa Sharq xalqlarining yozuv madaniyatlarini yaqinlashtirmoq edi" [Til-imlo 1932, 15].

O'zbek adabiy tilining imlosi muzokaralarida qatnashgan Axunov ham Cho'onzoda tomonidan ilgari surilgan fikrlarni deyarli qo'llab-quvvatlaydi: "O'rtoqlar, adabiy til haqida bo'lsin, termin haqida bo'lsin, rezolyutsiya qabul qilishda tilning o'sishi, yuksalishi asos qilinib olindi. Haqiqatan ham turmushning talabi shunday, albatta til o'sadir, yuksaladir, o'zgaradir. Shuning bilan birga bu kunning talabi bo'yincha singarmo'nizm qoidasining ham asos qilib oluv kerak. Biroq ko'p kuchli olimlar, shu jumladan pro'fesso'r Cho'ponzoda, keyin o'zimizdagi mutaxassislar ham, o'zimizdagi tilchilar ham singarmo'nizm bora-bora yo'q bo'ladi degan narsani e'tirof etadirlar. Bu albatta tajribadan kelib chiqqan narsa. Singarmo'nizm yolg'iz turk tillarida bo'lmasdan boshqalarda ham bo'lg'an va tillari o'skan sari yo'q bo'lib ketkan. Shuning uchun singarmo'nizmni temir qo'rg'on shaklida emas, vaqtincha bir chora deb qabul qilmoq kerak". "Ko'pchilikning talabi cho'zg'ularni qisqartish ekan, har bir joyda shuni talab qilar ekan, shuni e'tiborg'a olib, koferensiya o'z qarorlarida ko'pchilikning savodli bo'luvi uchun 6 cho'zg'ini qabul qilsa" [Til-imlo 1932, 122].

Anjumanda unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini aniqlashda turli takliflar bildiriladi. Oxunov 6 ta, Shokirjon Rahimiy 8 ta, Fitrat, Begjon, Hodi Fayziy, Orif Ayyub, Buyuk Karimiy, Murod Shamsiy, Abdulhay Ayub 9 ta, Ajdarov 10 ta, Sobirjon Ibrohimov 14 ta, Elbek 16 ta harif olinishini bildirganlar.

Imlo haqidagi qarorning ikkinchi bandida singarmonizm o'zbek so'zlarining imlosida saqlanishi qayd etiladi: "2) Yo'g'onliq ingichkalik o'zbek so'zlarining imlosida saqlanadir" [Til-imlo 1932, 124]. Shuningdek, to'liq imlo lug'atini tayyorlash ham qaror bilan ilmiy sho'ro huzurida tuziladigan komissiyaga yuklatiladi: "29) Yo'g'onliq ingichkalikda turli lahja va shevalarimizda turlicha bo'lib yurgan so'zlarni bir yag'liq qilish va tezdan to'luq bir imlo so'zligi tuzishni zarur bilamiz va bu ishlarni sho'ro qoshida tuzilaturg'an komissiyaga yuklatilsin va ular tezdan ommalashtirilsinlar" [Til-imlo 1932, 126]. Anjuman qarorida alifbodagi harflar tartibi va soni ham belgilangan: "27) Bizning alifbemiz birlashtirilgan yangi turk alifbesi va tartibi ham lotin asosida birlashtirilgan tartibdir. **Aa, Bb, Cc, Çç, Dd, Ee, Əə, Ff, Gg, Gƣƣ, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Nƣ, Oo, Øø, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, Zƣ, Ёё**" [Til-imlo 1932, 126].

Samarqandda bo'lib o'tgan anjumanda davriy matbuotda

va konferensiyada singarmonizm haqidagi bildirilgan turli fikrlar jamlanib, chuqur tahlil qilinmasdan barcha so'zlar singarmonizm hodisasiga bo'ysundiriladi, degan qaror qabul qilingan. Qabul qilingan imlo qoidalarida ayrim tub so'zlar, ba'zi rus tili va rus tili orqali o'zlashgan so'zlarning singarmonizmga bo'ysunmasligiga aniqlik kiritilmadi. 30-yillarning boshlaridan alifbo, imlo masalasi qaytadan kun tartibiga qo'yildi.

O'zbek adabiy tilidagi singarmonizmning chiqarilishi va unlilar sonining qisqartirilishi

1933-yil 7-yanvarda Butunrossiya Markaziy Ijroiya qo'mitasi huzuridagi Ilmiy kengashda o'zbek adabiy tili va uning imlosi haqidagi masala ko'rib chiqiladi. Ushbu Ilmiy kengash o'zbek adabiy tilini, uning imlosini tubdan o'zgartirgan, o'zining asrlar davomida shakllangan boy tarixidan uzib qo'ygan, kommunistik mafkura qoliplariga moslashtirishga harakat qilingan dastlabki qadam edi. Ilmiy kengashda Otajon Hoshimning "Yangi o'zbek adabiy tili va uning imlosining ba'zi masalalari" deb nomlangan ma'ruzasi tinglangan.

E'tibor berilsa, ma'ruza mavzusida "Yangi o'zbek adabiy tili va uning imlosi"ga alohida urg'u berilgan. Bu vaqtda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilishlar bo'lgan, barcha sohada yangi jamiyat qurilganligi, qurilayotganligi, uning olamshumul ahamiyati, o'tmishdan nafratlanishga oid targ'ibot ruhidagi ma'lumotlar keng quloch yozgan edi. Otajon Hoshim ma'ruzasining umumiy mazmuni va mohiyati ham shunday edi. Ma'ruza chig'atoy adabiy tilining XIV asrdan boshlanganligi, u tilda ijod etgan adiblar, ularning faoliyatiga oid ma'lumotlarni anglatish bilan boshlangan: "В эту эпоху образовалось феодальное государство Тимура и Тимуридов. В эту эпоху усилилось господство помещиков-феодалов, племенной феодальной чагатайской аристократии; ее идеология пропитала, разумеется, и литературы. Чагатайская литература возникла во дворцах Тимура и Тимуридов и достигла наивысшего развития с появлением произведений Атаи, Байкара, Лютфи, Наваи, Бабура и др. Многие из этих писателей были сами ханами, визирями и крупными феодалами. Все их произведения написаны на литературном чагатайском языке" [Хашимов 1933, 37]. Albatta, 30-yillarning boshlarida "chig'atoy tili", "chig'atoy adabiyoti", "chig'atoy gurungi", "burjuaziya vakili", "Temur va Temuriylar" haqidagi fikrlar, yumshoqroq qilib aytganda, faqat ayblov uchun ishlatilgan.

Ushbu ma'ruzada Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ilgari surilgan fikrlar chig'atoy aslzodalarining o'z tillarini yaratish yo'lidagi harakat sifatida baholanadi. Alisher Navoiyning Temuriylardan Husayn Boyqaroning vaziri va yaqin do'sti ekanligi alohida urg'ulangan, panturkistlar Navoiyni o'z bobolari sifatida qarashlari aytib o'tilgan: "Отсюда ясно, почему националисты-пантюркисты в части литературного языка до и после Октября выпячивали значение Наваи, объявляя его своим "дедушкой", борцом за тюркский язык. Националисты-пантюркисты доходили до утверждений, что Наваи, и его лице – чагатайский литературный язык, приближался к живым диалектам" [Хашимов 1933, 37].

Shundan so'ng chorizmning bosqinchilik siyosati va milliy tillarni ruslashtirish borasida olib brogan ishlari tanqid qilinadi [Хашимов. 1933. 38]. Jadidlar, ularning turkiy tillar uchun yagona tilni yaratish xususidagi faoliyati, "Chig'atoy gurungi"ning o'zbek adabiy tilini rivojlantirish yo'lidagi qarashlari qoralanadi [Хашимов 1933, 38-39].

Otajon Hoshim ushbu ma'lumotlardan keyin oktyabr inqilobi bergan ulkan imkoniyatlar, I.Stalinning "Sharq xalqlari dorilfununining siyosiy vazifalari", VKP(b)ning XVI s'ezdida qilgan "Milliy masaladagi qingg'ayishlar bilan kurashuv to'g'risida"gi ma'ruzasi ahamiyatiga alohida to'xtalgan. O'zbek tilining yangi davrda o'sib, rivojlanib borayotganligi, lotinlashtirish yangi adabiy tillarni rivojlantirish yo'lidagi bir bosqich ekanligini aytib o'tgan [Хашимов 1933, 40-41].

Olim shundan keyin singarmonizm va unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini qisqartirish haqidagi qarashlarini bayon etgan: "Последнее связано с вопросом о сингармонизме. В большинстве говоров, городских и кишлачных на данном этапе развития языка сингармонизм все больше ослабляется, нарушается. Это происходит, главным образом, в связи с развитием социалистического хозяйства и культурной революции Узбекистане, с развитием фабрик, заводов, ростом пролетариата впитывающего крестьян разлитых говоров, при усилении связи между городом и деревней и между различными районами, с созданием совхозов, колхозов, куда входят представители различных языков, и т. д.

В результате всего этого получается скрещивание различных городских, кишлачных диалектов а масштабах, каких прежде не видел Узбекситан. До Октября результатам

этого скрещивания являлась усиленная тенденция выравнивания живых говоров как городских, так и кишлачных. Эта тенденция именно и приводит к все большему ослаблению сингармонизма. Такова основная линия развития живых узбекских говоров.

При составлении орфографии необходимо учитывать этот основной закон уменьшения роли сингармонизмов, который можно видеть и наблюдать в языке.

Каким образом мы должны развивать орфографию узбекского языка, каким образом должны составить ее, чтобы ускорить этот процесс, чтобы создать базу для единой орфографии? При разрешении этого вопроса мы должны учитывать уничтожение сингармонизмов на данном этапе развития узбекского языка. Поэтому мы стоим на той точке зрения, что количество гласных можно сократить до пяти (**а, э, ь, і, о, ө, и, у, е = а, о, у, і, э**). Сокращение гласных в узбекском алфавите поможет решить этот основной, кардинальный вопрос для трудящихся масс Узбекистана, перед которыми стоит задача быстрее поднятия своего культурного уровня. Этот вопрос для нас является важнейшим вопросом культурной революции" [Хашимов 1933, 41].

Ushbu ma'ruza yuzasidan qaror ishlab chiqish uchun akad. Samaylovich (rais), akad. Meshaninov, Hoshimov (ma'ruzachi), prof. Fitrat (NKP O'zSSR), prof. Yakovlev, (Butun ittifoq markaziy komissiyasi yangi alifbo komiteti), Borovkov (Fanlar akademiyasi Tilshunoslik instituti), Alavverdov (Butun ittifoq markaziy komissiyasi yangi alifbo komiteti ilmiy kotibi), Jurgenov (O'zSSR xaiq komissarlar soveti), Yudaxin (Ilmiy tadqiqot assotsiatsiyasi milliy masalalarni o'rganish lingvistik komissiyasi), Raximiy (O'zSSR NKP huzuridagi terminkom) lardan iborat komissiya tuzilgan. Qarorda Otajon Hoshim ma'ruzasida ilgari surilgan barcha fikrlar qamrab olingan [Хашимов 1933, 43-45].

Ushbu ma'ruza, ma'ruza asosida qabul qilingan qaror o'zbek adabiy tili va imlosi haqida o'tkaziladigan anjumanlar, taqdiqotlar, matbuotda e'lon qilinadigan maqolalar va boshqa ishlar mazmunini, yo'nalishlarini belgilab bergan.

Qisqa bir muddatdan keyin "Qizil O'zbekiston" gazetasida Qayum Ramazon imzosi bilan "O'zbek tilining birlashgan imlosi" loyihasi e'lon qilindi. Unda unlilar soni 9 tadan 5 taga (**а, э, ь, і, о, ө, и, у, е = а, о, у, і, э**) qisqartirilgan, singarmonizm o'z vazifasini tilning boshqa sohalariga o'tkaza boshlagani, shu sababli bundan

keyin singarmonizm muhim rol o'ynamasligi qayd etilgan [Ramazon 1933].

Ushbu loyihaga ko'plab munosabatlar bildirilgan. Otajon Hoshimning "O'zbek yangi adabiy tili va uning imlosi haqida" nomli maqolasi asosan yuqoridagi ma'ruza mazmuniga mos edi. Unda yangi davrda o'zbek tilining rivojlanish tamoyillari, xalqaro (asosan, rus tili va rus tili orqali ovrupo tillaridan) so'zlarning kirib kelishi, yangi tovush tizimi, yangi qo'shimchalarning (-izm, -ik kabi) ishlatilishi, unli tovushlarning qisqarishi jarayonlari bayon qilindi. "Chig'atoy adabiy tilining (Navoiy, Bobur, Lutfiy va boshqa) feodal mohiyatidan olingan imlo", "panturkist, panislomist oqimlarining ... imlosi", "jadidizm imlosi", "o'zbek tili yuksalishini burjuaziya yo'liga boshlagan imlo", "chig'atoy tilining imlo prinsiplari" tanqid qilindi. 1929-yilga qadar o'tkazilgan anjumanlarda o'zbek tilidagi unlilarning qisqarishi va singarmonizmning yo'qolib borishi alifboda aks ettirilmaganligi ko'rsatib o'tildi.

Shundan keyin e'lon qilingan Elbek, Ulug' Tursun, F.Ismoil va boshqalarning maqolalarida ham *o'zbek tilidagi singarmonizmning yo'qolishi, unli tovushlar sonining qisqarib borishi* haqida fikrlar bildirildi. Otajon Hoshim qarashlari qo'llab-quvvatlandi.

Faqat Tursun Ibrohimov o'zbek tilning birlashgan imlosi loyihasida unlilar sonining qisqarishidagi ilmiy asoslar ko'rsatilmagani, juft unlilarning bir qancha shevalarda mavjudligi uchun ularning sonini ham qisqartirib bo'lmasligi, singarmonizmdan ham foydalanish kerakligi, haqida fikr bildirdi [Ibrohimov 1933].

Singarmonizm, unlilar to'g'risidagi bahs-munozaralarga 1934-yil 7-yanvarda Toshkentda bo'lgan Til-imlo konferentsiyasi yakun yasadi. Anjumanda yangi imlo qoidalari to'g'risida Otajon Hoshim ma'ruzasi tinglandi. Muzokaralarda Shokirjon Rahimiy, Faxri Kamol, Sobirjon Ibrohim, Avloniy, G'ozi Olim va boshqalar qatnashgan. Konferensiyada tasdiqlangan yangi imlo qoidalarida unlilar soni 6 ta (**a, ə, o, u, i, e**) qilib ko'rsatilgan, singarmonizm yangi sharoitda yo'qolib borayotganligi alohida ta'kidlangan. O'z MIK prezidiumining 1934-yil 13-mart qarori bilan tasdiqlangan mazkur imlo qoidalaridan keyin o'zbek tilining yozuv tizimida singarmonizm aks ettirilmadi, 9 ta unli tovushdan 3 tasi qisqartirilib 6 ta qilib belgilandi va bu hodisalar o'zbek adabiy tilining katta ijobiy yutug'i sifatida baholanib kelindi.

Xulosa

Shunday qilib, 1930-yilga qadar mahalliy olimlarning

barchasi o'zbek adabiy tilida singarmonizm rioya qilishini shart deb bilishgan va shu fikrda qat'iy turishgan. Y.Polivanov ularga qarshi chiqqan. 30-yillardan keyin esa mahalliy olimlar qarashlarida ham o'zgarish paydo bo'lgan. Ular endi yangi o'zbek adabiy tilini yaratish, singarmonizmning yo'qolishi, unli tovushlarning qisqarishi to'g'risida fikr bildira boshlaganlar.

Nega shunday? Chunki 30-yillarning boshiga kelib totalitar tuzum o'z mavqeini mutlaqo mustahkamlagan edi. Kimki millat, turk degan bo'lsa, "millatchi"ga, "panturkist"ga aylantirildi. Millat ma'naviyatining tayanchlari A.Qodiriy 1926-yilda hibsga olindi, Fitrat, Cho'lponlar o'z "millatchiliklarini" e'tirof etdilar. Munavvarqori qatl qilindi... 30-yillarning boshlaridan asosiy e'tibor "qosimovchilar", "milliy ittihadchilar", "millatchilar", "panturkistlar", "sotqinlar"ni fosh qilishga qaratildi.

J.Boybulatovning 1932-yilda chop etilgan "Chig'atoyizm - panturkizm" nomli asari asosan Fitrat, Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" asari, "Chig'atoy gurungi" faoliyati va Otajon Hoshim faoliyatidagi panturkizmni fosh qilishga qaratilgan edi [Байбулатов 1932]. Miyon Buzruk Salihovning 1933-yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari" asarida esa "panislomizm", "panturkizm", "millatchilik" masalalari yanada kengroq yoritildi [Salihov 1933]. Davr matbuoti, anjumanlaridagi holat ham shunday edi. Qisqa qilib aytganda, o'zbek tilini boshqa turkiy tillardan ajratib tashlash, unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini kamaytirish, o'zbek tilining "yiqilmas qo'rg'oni" deb bilingan singarmonizmni imlo qoidalaridan chiqarib tashlash uchun vaziyat yetildi. Y.Polivanov "Правда Востока"da alohida ta'kidlab o'tgan "5, 10 yoki 20 yil" uzoqqa cho'zilmadi.

Yuqorida keltirilgan dalillardan shunday xulosa chiqarish mumkin:

1. 1921-yil Toshkentda bo'lgan til va imlo qurultoyida, 1922-yilgi Maorif va madaniyat xodimlari qurultoyida hamda 1923-yilda Buxoroda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo o'zbeklarining imlo anjumanlarida o'zbek tilida singarmonizm hodisasi mavjud bo'lganligi haqida fikr yuritilgan. Bu davrda o'zbek tilida singarmonizmning mavjud emasligi haqida mulohazalar bildirilmagan. Anjumanlarda qabul qilingan qarorlarda o'zbek tilida singarmonizmning mavjudligi, so'zlar singarmonizm hodisasiga amal qilib yozilishi qayd etilgan.

2. Arab alifbosidan lotin yozuviga o'tish davrida singarmonizm hodisasi turlicha nuqtayi nazardan: o'zbek adabiy tilida

singarmonizm yuz foiz mavjudligi va imloda shunga amal qilinishi; o'zbek adabiy tili singarmonizm hodisasi bo'lmagan shevalar asosida tuzilishi; o'zbek adabiy tili singarmonizmga amal qilib, ayrim so'zlar singarmonizmga bo'ysundirilmasligi tahlil qilingan.

3. Davr matbuotida, yana anjumanlarda Abdurauf Fitrat, Elbek, G'ozi Olim, Ashurali Zohiriy, Otajon Hoshim, A.Alaviy, Singarmonizmchi va boshqalar o'zbek adabiy tili singarmonizmga yuz foiz amal qilishi kerakligi, alifboda unli tovushlarni ifodalash uchun 9 harf olinishi kerakligini bildirishgan.

4. Y.Polivanov, K.Yudaxinlarning ishlarida o'zbek adabiy tili uchun 6 unli tovush mavjud bo'lgan, singarmonizm hodisasi bo'lmagan eroniylashgan shahar shevalarini asos qilib olish bayon qilingan.

5. G'ozi Olim Yunusov, Elbek, Borovkovlar "eroniylashgan shevalar", "eroniylashgan shahar shevalari", deb yuritilayotgan qatlam asli o'zbek tilida gapirayotgan tojik millati vakillari ekanligini, ularning o'zbek tiliga aloqasi yo'qligini bildirishgan.

6. Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi olimlar o'zbek tilidagi barcha so'zlarni singarmonizm hodisasiga bo'ysundirish mumkin emasligini yoki Y.Polivanov ilgari surayotganidek, barcha o'zbekcha so'zlarni yozishda singarmonizm qoidasiga amal qilmaslik ham noto'g'ri ekanligini tushunib yetdilar. Bu muammoni hal etmaslik kelgusida qator chalkashliklar, tushunmovchiliklar keltirib chiqarishini isbotlab berganlar. Ular ayrim so'zlarni istino tariqasida singarmonizm hodisasiga bo'ysundirmaslik zarurligini kun tartibiga qo'yganlar.

7. 1929-yil may oyida Samarqandda o'tkazilgan til-imlo konferentsiyasida o'zbek adabiy tiliga singarmonizmli shevalar asos qilingan va 9 talik (**a, ə, ь, i, o, ɵ, и, y, e**) unlilar tizimini joriy etish haqida anjuman qarori qabul qilingan.

8. 30-yillarning boshlaridan o'zbek adabiy tilidagi unlilar soni, singarmonizm hodisasi haqidagi qarashlar o'zgara boshladi. Yangi jamiyatda yangi o'zbek adabiy tili shakllanayotganligi, o'zbek tili o'sib, rivojlanib singarmonizm hodisasi mutlaqo yo'qolish arafasida ekanligi, o'zbek adabiy tili imlosini qaytadan tuzish, unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini qisqartirish zarurligi kun tartibiga qo'yildi. Bu masala 1933-yil 7-yanvarda Butunrossiya Markaziy Ijroiya qo'mitasi huzuridagi Ilmiy kengashda muhokama qilingan. 1934-yil 7-yanvarda Toshkentda bo'lgan Til-imlo konferentsiyasida tasdiqlangan yangi imlo qoidalarida unlilar soni 6 ta (**a, ə, o, u, i, e**) qilib belgilangan, singarmonizm yangi sharoitda yo'qolib

borayotganligi alohida ta'kidlangan. Mazkur imlo qoidalari O'z MIK prezidiumining 1934-yil 13-mart qarori bilan tasdiqlangan, unda singarmonizm o'zbek adabiy tilidan chiqarigan, unlilar soni 9 tadan 6 taga tushirilgan.

Adabiyotlar

- Абдулла Алавий. 1927. *Ўзбек янги алифбосини тузишда асослар*. Тошкент-Самарқанд.
- Абдулла Алавий. 1929. *Маориф ва ўқитувчи* 6. Тошкент.
- Бартольд, В.В. 1922. *Мусулманский мир*. Петербург.
- Бартольд В.В. 1965. *Сочинения*. Том III. Москва: Наука.
- Боровков, А.К. 1946. "Алишер Навоий как основоположник узбекского литературного языка". *Алишер Навои* 105-107. М.-Л.
- Боровков, А.К. 1955. *По поводу теории иранизации узбекского языка*, 8: 79-92. Известия академии наук УзССР.
- Berdak Yusuf. 2008. "Lug'at ma'lumotlari doim ham ishonchli manbami?..." *Sog'lom avlod uchun* 10: 8-15, 18-22.
- Элбек. 1929. "Тил-имломиз устида". *Қизил Ўзбекистон*. 28 январь.
- Элбек. 1929. "Тил-имломиз устида". *Қизил Ўзбекистон*. 30 январь.
- Fitrat. 1927. *Маориф ва ўқитғувчи* 3: 6-7.
- Ғози Олим. 1927. "Ўзбек тилининг товишлари". *Маориф ва ўқитғувчи* 12. Тошкент.
- Ғуломов, Аюб. 1967. "Ўзбек совет тилшунослиги тарихидан". *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 3-8.
- Отажон Ҳошим. 1927. "Ўзбекистонда илмий ишлар". *Маориф ва ўқитғувчи* 11: 7-19. Тошкент.
- Отажон Ҳошим. 1933. "Ўзбек янги адабий тили ва унинг имлоси ҳақида". *Қизил Ўзбекистон*. 14 июн.
- Отажон. 1927. "Боку пленуми натижаси". *Маориф ва ўқитғувчи* 7-8: 54-57. Тошкент.
- Отамирзаева, Сорахон. 1996. "Сингармонизмни тиклаш шартми?" *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*. 19 январь.
- Отамирзаева, Сорахон. 1998. "А" юмшоқми ё қаттиқ". *Фан ва турмуш* 1: 30-31.
- ҲЎАТ. 1966. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. I. Фонетика, лексикология, Морфология. Тошкент.
- Hudoyberdiyev, Cöre. 1998. "Özbeçede ses uyumunun yok edilişi". *Türk dünyası dil ve edebiyat dergisi* 5: 433-443. Ankara.
- Иброҳимов, Т. 1933. "Ўзбек тилининг бирлашган имлоси проекти тўғрисида баъзи мулоҳазалар". *Қизил Ўзбекистон*. 26 май.
- Ишаев, Аҳмад. 1990. "Е.Д.Поливанов ва ўзбек тилшунослиги". *Ўзбек тили ва адабиёти* 2: 57-61.
- Каримов, Наим. 2011. "Буюк тилшунос олим". *Жаҳон адабиёти*

1: 187-192.

- Маҳмуд Кошғарий. 1960. *Туркий сўзлар девони* (Девону луғотит турк), т. I, таржимон ва нашрга тайёрловчи. С.М. Муталлибов. Тошкент.
- Маҳмуд Кошғарий. 1963. *Туркий сўзлар девони* (Девону луғотит турк), т. III, таржимон ва нашрга тайёрловчи. С.М. Муталлибов. Тошкент.
- Маҳмудхўжа Бехбудий. 2021. *Танланган асарлар*. II жилд. Тошкент.
- Маҳмудов, Қ. 1996. “Тил яқинлиги – дил яқинлиги”. *Фан ва турмуш* 4.
- Маҳмудов, Қозоқбой. 1995. “Қадимги Туркистон”. *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*. 24 ноябрь.
- Мелиоранский, П.М. 1900. *Араб филолог о турецком языке*. СПб.. XI, прим. 5.
- Мусульманские депутаты Государственной думы России 1906-1917 г.г.* 1998. Уфа.
- Нурмонов, Абдуҳамид. 1997. “Ўзбек тили унлиларининг фонологик белгилари”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 2: 74-77.
- “O'rta Osiyo o'zbeklarining birinchi til va imlo maslahat majlisi”. 1923. *Buxoro axbori*. 12-o'ktabr.
- “Ўрта Осиё ўзбекларининг имло конференцияси”. 1923. *Туркистон*. 31 ўктябр.
- “O'zbek maorif va madaniyat xodimlarining 2 nchi o'lka qurultoyi. Harf-imlo masalasi”. 1922. *Qizil bayroq*. 26-aprel.
- Politehnik Maktab va Pedagogika*. 1934. 3. San.
- Қиличев. 1999. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. Бухоро.
- Қаюм Рамазон. 1933. “Ўзбек тилининг бирлашган имлоси”. *Қизил Ўзбекистон*. 18 май.
- Решетов, В.В., Шоабдурахмонов, Ш. 1978. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент.
- Сафаров, Машариф. 2005. “Тилшуносликдаги бир баҳсли қараш ҳақида”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 90-94.
- “Сингармўнизмчи. Яна тил-имло масаласи устида”. 1928. *Қизил Ўзбекистон*. 15 феврал.
- Шоабдурахмонов, Ш., Асқарова, М., Ҳожиёв, А., Расулов, И., Дониёров, Х. 1980. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Шоабдурахмонов, Шоназар. 1998. “Ўзбек тилида сингармонизм”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 22-25.
- Шоабдурахмонов, Ш. 1974. “Ўзбек тилшунослигининг камолоти”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 58-63.
- 1921 йил январда бўлгон биринчи ўлка ўзбек Тил ва имло қурултойининг чиқаргон қарорлари*. 1922. Тошкент.
- “Тил-имло ва истилоҳ конференциясида имло тўғрисида чиқарилгон қарор”. 1929. *Қизил Ўзбекистон*. 2 июл.
- Умаров, Эргаш. 1989. “Маҳмуд Кошғарий: илтимос, асаримни тўғри

- изоҳланглар”. *Миллий тикланиш*. 1 декабрь.
